



## TASVIRIY SAN'ATDA ATAMALARNING QO'LLANISHI

**Kozimova Zulfiya**

*P.P.Benkov nomidagi Respublika  
ixtisoslashtirilgan rassomlik  
maktabining ona tili va adabiyot  
o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Tasviriy san'at o'ziga xos xususiyati va o'ziga hos lingvistik tabiati mavjud. Yagona terminologiya tizimini yaratish maqsadida san'atning nazariy va uslubiy tushunchalarini umumlashtirishga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar bugun kunda juda dolzarb. Ushbu maqolada aynan tasviriy san'atga oid terminlarning fundamental asoslar va stilistik xususiyati haqida fikr yuritadi.*

**Kalit so'zlar:** *Janrlar, grafika, obraz, avtoportret, natyurmort, botal janr.*

Tasviriy san'at xam boshqa fanlar kabi o'zining maxsus atamalariga ega. Ammo tasviriy san'at atamalarining mukammal izohli lug'ati shu kungacha yaratilmagan. Bu esa, albatta, oliy o'quv yurtlari va kasb-hunar kollejlari o'qituvchilariga tasviriy san'at sirlarini o'quvchilarga o'rgatishda ayrim qiyinchiliklarni keltirib chiqarmoqda. Darhaqiqat, hozirgi vaqtda izohli lug'atlarga bo'lgan ehtiyoj juda ortib bormoqda. O'quvchilar tasviriy san'at sirlarini o'rganish jarayonida juda ko'p tushunchalar va atamalarga duch keladi. Bunday atamalarning lug'aviy ma'nosini adabiyotlardan topish biroz qiyin.

Hozirda darslik, qo'llanma, risolalar va ilmiy maqolalarda tasviriy san'atga oid iboralar har xil shaklda yozilayotgan hamda turli ma'nolarda qo'llanilayotganini ko'ramiz. Bunday qiyinchiliklarga barham berish maqsadida ba'zi bir ilmiy izlanishlar olib borildi.

Tasviriy san'atga oid terminlar va tushunchalarni biz rus tilidan tarjima qilingan adabiyotlar hamda turli metodik jurnal va ro'znomalardan olishga harakat qilamiz. So'nggi yillarda nashr qilingan metodik tavsiyanomalar, qo'llanmalar va adabiyotlarda qo'llanilgan atamalarning tahlili shuni ko'rsatadiki, o'zbek tilidagi tasviriy san'at atamalarining qo'llanishida har xillik mavjud. Bu esa termin ma'nosini tushunishda anglashilmovchilikka olib keladi hamda o'quv jarayonining sifatiga ham o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatadi.

Tasviriy san'atda terminlar san'at asarlarini tahlil qilish, tavsiflash va baholashda muhim ahamiyatga ega. Ular san'atning turli jihatlarini aniqlash va tushuntirish uchun ishlatiladi. Quyida tasviriy san'atda keng qo'llaniladigan ba'zi terminlar keltirilgan:



1. Kompozitsiya – San'at asaridagi turli elementlarning o'zaro joylashuvi va tartibi. Kompozitsiya asar ichidagi harakatni, ritmni va muvozanatni yaratishda muhim rol o'ynaydi.

2. Perspektiva – Ob'ektlarning hajmi va masofasini tasvirlash usuli. Perspektiva yordamida rassomlar uch o'lchovli fazoni ikki o'lchamli yuzada aks ettiradilar.

3. Chiziq – Tasviriy san'atda chiziq shakllarni belgilash, harakat va tuzilmani yaratish uchun ishlatiladi. Chiziqlar egri, to'g'ri, ingichka yoki qalin bo'lishi mumkin.

4. Rang – Ranglar hissiyot va kayfiyatni ifodalashda muhim rol o'ynaydi. Rassomlar ranglarni o'zaro uyg'unlashtirib, kontrast va harakatni yaratishi mumkin.

5. Ton – Ton rasmning yorqinligi yoki to'qishini ifodalaydi. Yorqin va to'q tonlar orqali rassomlar asariga chuqurlik va ifodaviylik qo'shadilar.

6. Tekstura – Asar yuzasining haqiqiy yoki tasavvur qilingan tuzilishi. Tekstura yordamida asarning seziluvchanligi va jismoniy o'lchami ifodalanadi.

7. Obraz – San'at asaridagi mavzu yoki syujetni ifodalovchi shakl yoki figura. Obraz asarning asosiy mazmunini tashkil qiladi.

8. Abstraktsiya – Obrazlarning aniq va tanish shakllardan ajratilishi. Abstraktsiya rassomning hissiy tajribalarini yoki g'oyalarini ifodalash usuli sifatida ishlatiladi. Bu terminlar san'at asarlarini tahlil qilishda va ularni yaxshiroq tushunishda muhim ahamiyatga ega. Har bir termin o'ziga xos xususiyatlarni ifodalaydi va rassomning ijodiy niyatlarini ochib beradi.

Kundalik tajribada tasviriy san'at so'zining o'rniga «rasm» degan atama tez-tez qo'llanadi. Lekin atamashunoslik qo'mitasi «risunok» atama o'rniga «rasm» so'zini qo'llashni tavsiya etgan. Ayni paytda «reproduktsiya», «illyustratsiya», «grafika», «kartina» atamalarini ham «rasm yoki rasm san'ati» kabi atashadi. Atamalardagi har xillik sabablaridan biri atamalarning haqiqiy ma'nosin haqiqiy ma'nosini yaxshi bilmaslikdir.

Tasviriy san'at dars turlaridan birini «risovanie s natury» deyiladi. Shu termin «narsani o'ziga qarab rasm chizish» kabi so'zlar orqali tarjima qilingan. Mana shu atama kitoblarda turli xilda tarjima «Tabiat ko'rinishi», «peyzaj» (manzara) atamaları bir-biriga yaqin, ammo ikkalasi ham ikkita ma'noli atama. Tabiat ko'rinishi biz ko'rish va sezgi qobiliyatimiz orqali qabul qiladigan real voqelik bo'lsa, peyzaj (manzara) shu ko'rinishning badiiy tasviridir.

Tasviriy san'atni o'rganish jarayonida talabalar ayrim qiyinchiliklarga duch keladi. Bular quyidagi sabablar bilan bog'likdir:



milliy maktablar tasviriy ta'minlanmagan, san'at darsliklari bilan to'liq hozirgi kunda maktab o'quvchilari dars jarayonida atamalar mazmunini chuqur anglamaydi;

tasviriy san'atni o'rgatish bo'yicha metodik qo'llanma va tavsiyalar juda ham kam;

- pedagogika bilim yurtlari, oliy o'quv yurtlarining o'quv jarayonida atamalardan unumli foydalanilmaydi.

rassom-pedagog mutaxassislarni tayyorlaydigan institut va bilim yurtlari o'qituvchilarining har biri o'z holicha atamalar tuzishadi. Bu esa betartiblikka va noaniqlikka olib boradi.

O'zbek tiliga tarjima qilingan tasviriy san'at atamalarining har xilligiga quyidagi sabablarni keltirish mumkin:

1. Mutaxassis tarjimon bo'lmaganligi atamalarni shakl va mazmuni buzilishiga olib keladi.

2. Hozirgi tasviriy san'atning o'zbek tilidagi terminologiyasidagi bir tushunchaga nisbatan bir necha nomligi qo'llaniladi.

3. Atamalarining har xilligi sababi tasviriy san'atning o'zbek tilidagi izohli lug'ati mavjud emasligiga bog'likdir.

Tasviriy san'atning o'zbek tilidagi terminologiyasini tartibga keltirish va izoh berish borasida o'zbek tilining o'ziga xos xususiyatlari bilan terminologiyasining umumiy jarayonlaridan quyidagilarni qo'llash zarur:

1. Rus tiliga tarjimasiz o'tkazilgan baynalminal atamalarni uzbek tiliga xam tarjimasiz o'tkazish zarur. Masalan, akvarel, asimmetriya, vitraj, galereya, garmoniya, gravyura, mozaika, ofort, panno, pastel, simmetriya, statuya, faktura, fon, estamp, eksterer, etyud va boshqalar.

2. Ba'zan rus tilidagi atamaga loyiq bo'lgan atama topilmasa, shu atamani tarjima qilmasdan asliga qoldirish o'rinlidir. Masalan, vizirovaniye, palitra, zarisovka, ottenok, mazok, naturshchik, axromatik, applikatsiya, janr, illustratsiya, va boshqalar.

3. O'zbek tilidagi tasviriy san'at atamalarini tuzishda o'zbek tilining ichki imkoniyatlaridan to'liq foydalanish zarurdir. Ba'zan rus tilidagi bir so'zlik ibora ma'nosini o'zbek tilidagi bir so'z bilan yetkazib berish qiyindir. Shuning uchun ikki so'zni chiziq bilan yozish shart. Masalan, kontrast qarama-qarshilik, svetoten yorug'-soya, blesk yaltiroq-doq, byust - gavda-haykal .



4. Atamalarni rus tilidan o'zbek tiliga tarjima qilishda iloji boricha ichki shaklni saqlash zarur. Masalan, rus tilidagi «ornament» atamasi fakatgina «gul» ma'nosini bildiradi. O'zbek tilida esa bu ma'no «naqsh» iborasida qo'llanilayapti. Tugrirog'i «ornament» atamasini «o'yma naqsh» yoki «o'ymagul» tarzida tarjima qilish zarur. «Jivopis» atamasining ma'nosi «tirik, jonli» jonli» va «yozish» tushunchalarini bildiradi. Tahlil qilib qarajak, jonli yozish bilan rangli tasvirlash iboralari orasida uzoqlik borligi ma'lum bo'lib turibdi. Shu kabi ikki shakl mazmunini qoldirgan holda tarjima qilib «rangtasvir» iborasi qo'llanilmoqda.

5. Atamalar bilan birgalikda tasviriy san'at asarlari nomlarini ham to'gridan to'gri emas, balki mazmuniga ko'ra tarjima qilish zarurdir. Masalan, reylef – bo'rtma yuz, barelef past bo'rtma, gorelef baland bo'rtma.

Fanlararo ensiklopedik tadqiqotlarni murakkablashtiradigan ikkinchi sabab - ta'riflarning tavsif xususiyatidir. San'at tarixi, estetika va madaniyatshunoslikda fundamental tushunchalarni raqamli belgilar yoki formulalar yordamida ifodalash mumkin bo'lgan aniq fanlardan farqli o'laroq, tushunchalarni aniqlashning asosiy vositasi tabiatan noaniq bo'lgan so'zdir. Shu munosabat bilan ingliz tili noyob imkoniyatlarni taqdim etadi Yevropa tillarining eng yoshi, u tarixan yunon, lotin, roman, german va sharq shevalaridan ko'plab leksemalarni o'zlashtirgan. Ingliz va o'zbek tillari tlining formulalari ma'no soylariga boy va bu ob'ektiv terminologiya ko'rinishini yaratadigan anglikizmlar yoki germanizmlarga murojaat qilishni keraksiz qiladi. Biroq, o'tgan asr uchun tabiiy bo'lgan ilmiy tillarning baynalmilallashuvi har doim ham o'zgargan atamalarning asosli ravishda kiritilishi bilan bog'liq

#### FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. Abdurasilov S.N.Tolipov "Tasviriy sanat o'qitish metodikasi (amaliy mashg'ulotlar)" Toshkent-2007 yil
2. Abdirasilov S. Boymetov B, Tolipov N .Tasviriy san'at. T.:Cho'lpon, 2006.
3. Boymetov B, Abdurasulov S. Chizmatasvir. T.: G'.G'ulom –matbuot ijodiy uy. 2004.
4. Golovin B. N. Introduction to linguistics. -M.: Higher School, 1977. 312 p.
5. Gorelov V.I. Lexicology of the Chinese language. -M.: Education, 1984. 216 p.
6. Korostina T. P. On the issue of foreign borrowings in modern Chinese // Chinese linguistics, isolating languages. X International Conference. Materials. -M., 2000. P. 84-91.
7. Ivanov V.V. Terminology and borrowings in modern Chinese. -M.: Nauka, 1973. 172